



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 5

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI UCHUN KADRLAR TAYYORLASHDA INTERFAOL VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Kimsanboyeva Ruxsoraxon Ziyodbek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lim yo'nalishi) 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tizimi uchun kadrlar tayyorlash jarayonida interfaol va raqamli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari, raqamli platformalar hamda interfaol metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Shuningdek, talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish hamda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning o'рни ochib beriladi. Maqola natijalari maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini tayyorlashda pedagogik texnologiyalarni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so'zlar : maktabgacha ta'lim, raqamli texnologiyalar, interfaol metodlar, innovatsion pedagogika, o'qitish texnologiyalari, kasbiy kompetensiya, ta'lim samaradorligi, raqamli ta'lim muhiti.

KIRISH. amonaviy dunyoda raqamlashtirish — ta'lim sohasida global tendensiyaga aylangan. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim muassasalari uchun interfaol va raqamli texnologiyalarni joriy etish, bolalarning erta yoshdan bilim, ko'nikma va kognitiv rivojlanishida yangi imkoniyatlar yaratadi. Shu boisdan, pedagog kadrlarni tayyorlashda nafaqat an'anaviy pedagogik bilimlar, balki raqamli savodxonlik va axborot-kommunikativ kompetensiyalarni ham shakllantirish zarur. Prezidentimizning PQ-289-sonli Qarorida "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida (<https://lex.uz>)" (2022-yil 21-iyun) — bu qarorda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, bo'lajak o'qituvchilarning zamonaviy dasturiy mahsulotlaridan foydalanish va videomaterial yaratish hamda elektron ta'lim platformalarini qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish vazifasi qo'yilgan.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalardan foydalanishni har bir bo'lajak tarbiyachi bilishi uchun pedagoglarda axborot-kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish uchun talabalarga yetarlicha imkoniyatlar yaratilmoqda.

MAVZUGA OID METODLAR VA TAHLILLAR

Talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish oliy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri bo'lib, zamonaviy mehnat bozori talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Kasbiy kompetensiya deganda talabada kasbiy faoliyatni





samarali bajarish uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, malakalar hamda shaxsiy sifatlar majmui tushuniladi. Talabalarda shakllantiriladigan kompetensiyalar umumkasbiy, maxsus va shaxsiy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi. Umumkasbiy kompetensiyalar kommunikativ ko'nikmalar, axborot texnologiyalaridan foydalana olish, muammoni hal qilish va tanqidiy fikrlash kabi jihatlarni o'z ichiga olsa, maxsus kompetensiyalar kasbga xos amaliy malakalarni o'zlashtirishni nazarda tutadi. Shaxsiy kompetensiyalar esa mas'uliyat, tashabbuskorlik, kasbiy etika va madaniyat kabi fazilatlar bilan ifodalanadi. Talabalarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshadi. Avvalo kasbga bo'lgan qiziqishni uyg'otish, motivatsiyani kuchaytirish zarur. Keyingi bosqichlarda nazariy bilimlar beriladi va ularga tayanib amaliy mashg'ulotlar tashkil etiladi. Eng muhim jihatlardan biri nazariya va amaliyotning integratsiyasidir, ya'ni o'rganilgan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llashni o'rgatishdir. Bugungi kunda ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash, loyihaviy o'qitish, treninglar, keys-stadi kabi uslublar talabalarning faol ishtirokini va kasbiy jihatdan yetuk bo'lib shakllanishini ta'minlaydi. Shuningdek, dual ta'lim tizimi orqali talabalarning korxona va tashkilotlarda bevosita tajriba orttirishi ularning kasbiy salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Talabalarning kompetensiyalarini baholashda portfoliolar tuzish, amaliy topshiriqlar natijalarini tahlil qilish, ish beruvchilar fikri va talabani o'z-o'zini baholash tizimlaridan foydalaniladi. Kasbiy kompetensiyalarning rivojlanishi natijasida bitiruvchilar zamonaviy innovatsiyalarni qo'llay oladigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan, jamoada hamkorlikda ishlay oladigan hamda muntazam ravishda o'z ustida ishlaydigan mutaxassisga aylanadilar. Shu tariqa talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlashda pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish bugungi kunda ta'lim tizimida ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi jamiyatning kelajakdagi taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, shu bois bu yo'nalishdagi kadrlar yuqori kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi zarur. Pedagogik texnologiyalarni takomillashtirishning asosiy maqsadi — talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko'nikmalarini kengaytirish va ularni ijodkor, tashabbuskor tarbiyachi-pedagog sifatida shakllantirishdir. Hozirgi davrda maktabgacha ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar o'zgarib, raqamli texnologiyalar, innovatsion metodlar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi muhim o'rinni egallamoqda. Shu sababli dars jarayonlarida loyihaviy ta'lim, muammoli o'qitish, interaktiv metodlar, STEAM yondashuvi, klasterli va differensial o'qitish kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalar keng qo'llanilishi zarur. Talabalar amaliyotni real





ta'lim muassasalarida tashkil qilishi, bolalar bilan ishlash jarayonida kuzatish va tajribalar orqali o'z kasbiy mahoratini rivojlantirishi samaradorlikni oshiradi. Pedagogik texnologiyalarni takomillashtirishda raqamli o'quv resurslaridan foydalanish, virtual laboratoriyalar, onlayn treninglar va simulyatsiya dasturlaridan foydalanish ham muhimdir.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda talabalarga maktabgacha ta'lim jarayonini modellashtirish, o'yin texnologiyalarini yaratish, rivojlantiruvchi metodik materiallarni mustaqil ishlab chiqish imkonini beradi. Shu bilan birga, tarbiyachi shaxsida kommunikativ madaniyat, pedagogik etika, psixologik bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga alohida e'tibor beriladi. Mutaxassislar tayyorlashda mentorlik tizimini yo'lga qo'yish, tajribali pedagoglar bilan hamkorlikda seminar va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish ham yuqori samaraga olib keladi. Takomillashtirilgan pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim olgan tarbiyachilar bolalar rivojlanishini to'g'ri boshqara oladi, ularning qiziqishi, iste'dodi va imkoniyatlarini aniqlab, sharoit yaratadi. Natijada maktabgacha ta'lim muassasalariga yuqori malakali, yangilikka intiluvchi, kreativ fikrlovchi va zamon talablariga mos pedagog kadrlar yetishtiriladi. Bu esa maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, bolalarda har tomonlama rivojlangan shaxs asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya" Davlat o'quv dasturi — "Ilk qadam". — Toshkent, 2021. 12-18b
4. To'raqulova, N.Q. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. — Toshkent: Tafakkur qanoti, 2022. 138-144b
5. Sodiqova, G. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. 188-189b
6. Zokirova, F. Maktabgacha ta'lim metodikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2019.
7. Abdullayeva, Q. Pedagogik texnologiyalarni qo'llashning zamonaviy yondashuvlari // Ilmiy-amaliy jurnal. — 2023. 56-59b

